



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 3-mart

№ 2109

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami hamda 10-mart – Xalqaro ayol sudyalar kuni munosabati bilan bir guruh ayollarni “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

1. Sud tizimida yuksak obro‘-e‘tibor qozongan, sudyalik burchini benuqson, samarali va halol amalga oshirgan, jamiyatda odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va yosh sudya kadrlarni yetishtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan quyidagi ayollar “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlansin:

Sultanova Jamila Masharipovna;
Xasanova Mexribon Atabayevna;
Babamirzayeva Bumayram Abdulatipovna.

2. “Sud faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganlarga ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tantanali vaziyatda topshirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash Sudyalar oliy kengashi kotibi X.Sadikov zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov